

## DINIY BAG‘RIKENGLIK VA UNING IJTIMOIIY TARAQQIYOTDAGI O‘RNI

**Abdumannopova Dildora Akmaljonovna**

*Farg‘ona davlat universiteti talabasi*

[iakmaljon214@gmail.com](mailto:iakmaljon214@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur ishda diniy bag‘rikenglik tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning jamiyat hayotidagi o‘rni yoritib berilgan. Unda turli e‘tiqod vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, sabr-toqat va muhosanaing ahamiyati ta‘kidlangan. Diniy bag‘rikenglik jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlash, yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalash, shuningdek, demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda muhim omil sifatida qaraladi. Asarda tarixiy misollar va bugungi kun tajribalari asosida bu tushuncha chuqur tahlil qilingan va uni rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Diniy bag‘rikenglik; e‘tiqod erkinligi; ijtimoiy taraqqiyot; tinchlik va barqarorlik; demokratik qadriyatlar; dinlararo dialog; yoshlarning ma‘naviyati; O‘zbekiston tajribasi.

**Annotation:** This paper explores the concept of religious tolerance and its significance in social life. It highlights the importance of mutual respect, patience, and dialogue among people of different faiths. Religious tolerance is viewed as a key factor in ensuring peace and stability, nurturing younger generations, and strengthening democratic values in society. The work analyzes this idea through historical examples and current experiences, offering insights into ways of promoting and maintaining tolerance in a multicultural world.

**Keywords:** Religious tolerance; Freedom of religion; Social development; Peace and stability; Democratic values; Interfaith dialogue; Youth spirituality; Uzbekistan’s experience.

**Аннотация:** В данной работе рассматривается понятие религиозной терпимости и её значение в общественной жизни. Подчеркивается важность взаимного уважения, терпения и диалога между представителями различных вероисповеданий. Религиозная терпимость рассматривается как важнейший фактор обеспечения мира и стабильности, воспитания молодёжи и укрепления демократических ценностей в обществе. В исследовании приводятся исторические примеры и современный опыт, а также предлагаются пути развития и сохранения терпимости в многонациональной среде.

**Ключевые слова:** Религиозная терпимость; Свобода вероисповедания; Социальное развитие; Мир и стабильность; Демократические ценности; Межрелигиозный диалог; Духовность молодёжи; Опыт Узбекистана.

Diniy bag‘rikenglik – turli diniy e‘tiqoddagi kishilarning olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo‘lida xizmat qilishini anglatadigan tushuncha. Hozirgi vaqtda bu ezgu g‘oya nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a‘zolari o‘rtasidagi hamkorlik va bahamjihatlikni nazarda tutadi. Diniy bag‘rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir. Qadimdan diyorimizda buddaviylik, zardushtiylilik, nasroniylilik, yahudiylik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan, madaniyat markazlari hisoblangan shaharlarimizda masjid, cherkov, sinagogalar faoliyat ko‘rsatgan. Ularda turli millat, elat va dinga mansub bo‘lgan xalqlar, qavmlar o‘z diniy amallarini emin-erkin ado etgan. Vatanimiz tarixining eng murakkab, ziddiyatli, og‘ir davrlarida ham yurtimizdagi mavjud din vakillari o‘rtasida diniy asosda mojarolar bo‘lgan emas. Bu – yurtimiz xalqlarining Diniy bag‘rikenglik borasida katta tajribaga ega bo‘lganidan dalolat beradi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 16 konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ularga o‘z diniy marosimlarini o‘tkazish va mamlakat hayotida faol ishtirok etish uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O‘zbekiston Konstitutsiyasida, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunda mustahkamlab qo‘yilgan. Ma’lumki, dunyodagi dinlar asl mohiyatiga ko‘ra ezgulik g‘oyasiga asoslanadi, kishilarni halollik, poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag‘rikenglikka da’vat etadi. Inson hayotining asl maqsadi inson va tabiatga nisbatan odilona, oqilona munosabatda bo‘lish, hamisha yaxshi, savobli ishlarni amalga oshirishdan iboratdir. Shunday ekan, haqiqiy diniy qarashlar ortida diniy bag‘rikenglik yotadi. UNESCO diniy bag‘rikenglik muammosiga alohida e’tibor berib, 1995 yilni BMTning bag‘rikenglik yili deb e’lon qildi. O’sha yili 16 noyabrda 185 davlat ishtirokida Parijda Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi qabul qilindi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ham bu sohada ulkan ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda respublikamizda ikki mingdan ziyod diniy tashkilot, shu jumladan, O‘zbekiston Musulmonlari idorasi, Qoraqalpog‘iston Musulmonlari qoziyati, Toshkent Islom instituti, 10 ta madrasa va 2003 ta masjid, Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O‘rta Osiyo Yeparxiyasi, Pravoslav seminariyasi, Rim-katolik cherkovi, Yevangel xristian baptistlar cherkovlari ittifoqi, to‘liq Injil xristianlar markazi, Xristian seminariyasi, O‘zbekiston Bibliya jamiyati, 162 ta xristian cherkovi, 8 ta yahudiy va 8 ta bahriy jamoasi, 1 ta Krishnani anglash jamiyati, 1 ta buddist ibodatxonasi davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

Diniy qarash – ilohiy va dunyoviy tushuncha va tasavvurlar mushtarakligini ifoda etuvchi ma’rifiy qarash. “Alloh qalbimizda, yuragimizda” tamoyili asosida mamlakatimizdagi turli diniy e‘tiqod va maslakdagi fuqarolar uchun Vatan yagonaligi g‘oyasi ilgari suriladi. Zero, inson va ma’naviyat, odam va olam, makon va zamon o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirish zahirida jamiyatni birlashtirish,

barqarorlashtirish imkoniyatlari mujassamdir. Shu tariqa turli e'tiqodlar, xilma-xil qarashlar va munosabatlarni uyg'unlashtirish konsepsiyasini asoslashga yo'l ochiladi. Bunda jamiyatni barqarorlashtirish masalasi insonning ma'naviy-ruhiy yetukligi va komilligi bilan bog'liq holda tushuniladi. Diniy-ma'rifiy qarashlar jamiyat taraqqiyotining muhim omili darajasiga ko'tariladi.

Diniy bag'rikenglik – bu bir inson o'z diniga e'tiqod qilgan holda, boshqalarning diniy qarashlariga ham hurmat bilan qarashi, ular bilan murosada yashashi demakdir. Bu tushuncha dinlararo hamjihatlik, e'tiqod erkinligi va fuqarolik tinchligini ta'minlashda asosiy tamoyil hisoblanadi. Diniy bag'rikenglik mavjud bo'lgan jamiyatda ekstremizm va radikalizmga qarshi samarali kurash olib boriladi, sababki, insonlar o'rtasida ishonch va hurmat mavjud bo'ladi.

Diniy bag'rikenglik insoniyat tarixida ko'p marotaba o'z tasdig'ini topgan. Jumladan, O'rta asrlarda Movarounnahr hududida yashagan buyuk mutafakkirlar – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband singari olimlar o'z asarlarida sabr, murosali va bag'rikenglik g'oyalarini ilgari surishgan. Amir Temur davrida ham turli dinlarga mansub kishilar o'rtasida murosali siyosat yuritilgan. Bobur Mirzo Hindistonda hukmronlik qilganida islom dini bilan bir qatorda hindular, nasroniylar, buddistlar va boshqa diniy guruhlarining huquqlari himoya qilingan. Ularning diniy marosimlariga aralashilmagan, bu esa davlat barqarorligiga xizmat qilgan. Tarix sahifalariga nazar tashlasak, diniy bag'rikenglikning yorqin namunalarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Movarounnahr hududida Amir Temur davrida turli din vakillari o'z e'tiqodlariga muvofiq yashashgan. Amir Temur o'zining "Tuzuklari"da ruhoniylarga, jumladan, musulmon, nasroniy va yahudiylarga nisbatan ehtirom bilan muomala qilish zarurligini ta'kidlagan. U shaharlar qurish, ilm-fan va madaniyat rivojiga katta e'tibor bergan, bu esa diniy bag'rikenglikning amaliy ifodasi bo'lgan.

Yana bir tarixiy misol – Andalus (Ispaniya)dagi musulmonlar, nasroniylar va yahudiylarning bir davrda birgalikda yashagan davri. Bu davrda ular ilm-fan, tibbiyot, falsafa sohalarida birgalikda ishlashgan. Andalus bag'rikenglikning yorqin timsoli bo'lib, tarixda "oltin asr" deb nom olgan. Afsuski, ba'zi tarixiy davrlarda diniy bag'rikenglik yo'qligi ijtimoiy fojialarga olib kelgan. Masalan, Yevropadagi diniy urushlar, inkvizitsiyalar yoki diniy zo'rvonliklar – bu kabi misollar odamzodga bag'rikenglikning naqadar muhimligini eslatadi. Bugungi kunda esa tarixiy tajribalardan saboq olib, ko'plab mamlakatlar diniy bag'rikenglik siyosatini yuritmoqda. O'zbekiston ham bu borada ilg'or tajribaga ega. Turli din vakillari tinch-totuv yashamoqda, ularning diniy marosimlari erkin amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda diniy bag'rikenglik nafaqat ijtimoiy murosaning belgisi, balki inson huquqlarining kafolati sifatida qaraladi. BMT, YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar ham bag'rikenglik g'oyasini targ'ib qilmoqda. Dunyoda yuzaga kelayotgan turli diniy qarama-qarshiliklar, ekstremizm va radikalizm kabi tahdidlar diniy

bag'rikenglikka bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Shuningdek, ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlatlarda diniy bag'rikenglik ijtimoiy totuvlik va tinchlikning asosi hisoblanadi. Masalan, O'zbekistonda turli din vakillarining teng huquqli yashashlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bu esa xalqaro maydonda mamlakat obro'sini oshirmoqda.

Bugungi demokratik jamiyatlarda har bir insonning diniy e'tiqodi himoya qilinadi. Bu esa odamlarning o'zini erkin his qilishiga, o'z e'tiqodi asosida yashashiga imkon yaratadi. O'z navbatida, bu erkinlik boshqa kishilarning huquqlarini poymol qilmaslik sharti bilan muvozanatda bo'lishi zarur. O'zbekistonda ham diniy bag'rikenglik masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizda turli diniy konfessiyalar vakillari tinch-totuv yashamoqda. Bu esa Vatanimizdagi barqarorlik va birdamlikning muhim asoslaridan biridir.

Zamonaviy dunyoda, ayniqsa yoshlar orasida diniy bag'rikenglik masalasi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda diniy bag'rikenglikni shakllantirish, ularning dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va kelajakdagi jamiyatga bo'lgan yondashuvlarini belgilab beradi. Shuningdek, diniy bag'rikenglikning yoshlar uchun foydalari ko'plab ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlardan iboratdir.

1. Yoshlar o'rtasida hurmat va sabr-toqatni rivojlantiradi. Diniy bag'rikenglikni o'rganish yoshlar uchun boshqalarni tushunishga va hurmat qilishga o'rgatadi. Ular turli e'tiqodlar va madaniyatlar bilan tanishib, ularga sabr-toqat bilan qarashni o'rganadilar. Bu, o'z navbatida, yoshlarni to'g'ri munosabatda bo'lishga, ko'proq hamjihatlikda yashashga undaydi.

2. Yoshlarning o'z e'tiqodlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Diniy bag'rikenglikning o'rganilishi, yoshlarni o'z diniy e'tiqodini erkin va xavfsiz muhitda ifoda etishga yordam beradi. Boshqalarning e'tiqodini hurmat qilish bilan birga, o'z e'tiqodlarini ham yanada mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu, ular o'z diniy identitetini anglashga va unga hurmat bilan yondashishga yordam beradi.

3. Inson huquqlari va erkinliklariga hurmatni oshiradi. Diniy bag'rikenglik yoshlar uchun inson huquqlari, erkinlik va tenglikka hurmatni rivojlantiradi. Ular har bir insonning e'tiqodiga, millatiga, va madaniyatiga hurmat bilan qarashni o'rganadilar. Bu, o'z navbatida, jamiyatda tenglik va adolatni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

4. Yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi. Diniy bag'rikenglikni o'rganish yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi. Ular turli dinlar va madaniyatlar haqida bilimga ega bo'lib, yanada ochiq fikrli va tolerant bo'ladilar. Bu, ularning shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

5. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Diniy bag'rikenglikni o'rganayotgan yoshlar, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashga hissa qo'shadilar. Yoshlarda diniy bag'rikenglik ruhini shakllantirish, kelajakda ular o'z jamiyatlarida

diniy qarama-qarshiliklarni oldini olishga yordam beradi. Yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirishda diniy bag'rikenglik muhim rol o'ynaydi. Ular turli e'tiqod va qarashlarga nisbatan ochiq fikrli bo'lishga, sabrli va madaniyatli muomalaga o'rganadi. Bu esa kelajakda ekstremistik g'oyalarga qarshi immunitet hosil qiladi. Maktablarda, oliy ta'lim muassasalarida bag'rikenglik bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilishi lozim. Shu yo'l bilan farovon, madaniyatli jamiyat barpo etish mumkin.

Diniy bag'rikenglik jamiyatda tinchlik, barqarorlik va hamjihatlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Buning uchun diniy bag'rikenglikni rivojlantirishning bir nechta yo'llari mavjud. Quyida diniy bag'rikenglikni shakllantirish va rivojlantirish uchun amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ba'zi asosiy yo'llarni keltiraman:

1. Ta'lim va tarbiya tizimida diniy bag'rikenglikni targ'ib qilish. Ta'lim – diniy bag'rikenglikni rivojlantirishning asosiy vositasidir. Maktablar, kollejlarda va universitetlarda yoshlarni turli dinlar va madaniyatlar bilan tanishtirish, diniy bag'rikenglikni o'rgatish orqali ularning fikrini ochish mumkin. Bu nafaqat diniy, balki madaniy va ijtimoiy bag'rikenglikni ham rivojlantiradi. Ayniqsa, axloqiy va diniy qadriyatlar haqida maxsus darslar tashkil etish juda foydali bo'ladi.

2. Xalqaro va mahalliy dinlararo dialogni kuchaytirish. Diniy bag'rikenglikni rivojlantirishda dinlararo dialog muhim ahamiyatga ega. Turli dinlar vakillari o'rtasida suhbatlar, konferensiyalar va forumlar o'tkazish, bir-birini tushunish va hurmat qilishni ta'minlaydi. Shuningdek, bunday tadbirlar ishtirokchilarni dinlar o'rtasidagi farqlarni emas, balki umumiy qadriyatlar va insoniyatga foyda keltiradigan jihatlarni ko'rsatishga undaydi.

3. Media va axborot vositalarining roli. Diniy bag'rikenglikni targ'ib qilishda ommaviy axborot vositalarining o'rni juda katta. Televizor, radio, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali diniy bag'rikenglik haqida ma'lumotlar tarqatish, ayniqsa, yoshlar orasida bu qadriyatlarni targ'ib qilish muhimdir. Ommaviy axborot vositalari orqali ijobiy va konstruktiv ma'lumotlar tarqatish, diniy ekstremizm va nafratni kamaytirishga yordam beradi.

4. Diniy liderlar va jamiyat yetakchilari tomonidan o'rnak ko'rsatish. Diniy bag'rikenglikni rivojlantirishda diniy liderlar, ruhoniylar va jamiyat yetakchilarining o'rni katta. Agar ular o'z ta'limotlarida bag'rikenglik, sabr-toqat va boshqa dinlarni hurmat qilishni targ'ib etsa, bu jamiyatda diniy bag'rikenglikning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Diniy liderlarning ochiq va tinch dialogga tayyor bo'lishi ham ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

5. Yoshlar o'rtasida diniy bag'rikenglikni targ'ib qilish. Yoshlarda diniy bag'rikenglikni shakllantirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishning samarali usulidir. Yoshlar o'rtasida diniy bag'rikenglikni rivojlantirish uchun maxsus dasturlar, seminarlar, treninglar va madaniy tadbirlar

tashkil qilish mumkin. Bu orqali ular turli dinlar va madaniyatlar bilan tanishib, boshqalarni hurmat qilishni o'rganadilar.

6. Qonunchilik va davlat siyosati. Diniy bag'rikenglikni rivojlantirishda davlatning roli katta. Davlatlar diniy erkinlikni ta'minlaydigan qonunlarni ishlab chiqishi, diniy diskriminatsiyaga qarshi kurashishi, har bir din vakilining huquqlarini himoya qilishi zarur. Shuningdek, diniy bag'rikenglikni targ'ib qilish davlat dasturlariga kiritilishi kerak. Davlatning diniy bag'rikenglikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosati jamiyatdagi ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashga yordam beradi.

7. Diniy va ijtimoiy qadriyatlar bo'yicha o'quv materiallarini yaratish. Diniy bag'rikenglikni targ'ib qilish uchun o'quv materiallari, kitoblar, maqolalar va videolar yaratish muhim. Bu materiallar yoshlarga va jamiyatning boshqa a'zolariga diniy bag'rikenglikning ahamiyatini tushuntirishga yordam beradi. Turli dinlar va madaniyatlar haqida faktlarga asoslangan ma'lumotlar berish, ularning o'xshashliklari va umumiy qadriyatlarini ko'rsatish kerak.

**Xulosa.** Diniy bag'rikenglik – bu jamiyatda tinchlik, barqarorlik, taraqqiyot va insoniylikning kafolatidir. U orqali ijtimoiy nizolarning oldi olinadi, insonlar o'rtasida ishonch va mehr-muhabbat mustahkamlanadi. Bag'rikenglik o'rgatiladigan, qadrlanadigan va amaliyotda qo'llaniladigan madaniyatdir. Har birimiz diniy bag'rikenglik tamoyillariga amal qilsak, jamiyatimiz yanada barqaror va rivoj.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. 'Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida'gi Qonun.
3. Karimov I.A. 'Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch'. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Alimov Sh. va boshq. 'Dinshunoslik'. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2007.
5. Xaitov M., Muxammadiev N. 'Dinshunoslik asoslari'. – T.: O'zbekiston, 2005.
6. Abdulaziz Mansur. Islom – tinchlik dini. – Toshkent: Sharq, 2006.
7. Ziyodov A. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik masalalari. – Toshkent: Ijtimoiy Fikr, 2013.
8. Jo'rayev M. Din va jamiyat. – Toshkent: Adolat, 2007.
9. Yusupov A. Bag'rikenglik falsafasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
10. Sattorov B. O'zbekistonning ma'naviy-ma'rifiy hayotida dinning o'rni. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
11. Turaev A. Globallashuv va diniy bag'rikenglik. – Toshkent: Akademiya, 2015.
12. Komilov N. Tasavvuf va ma'naviyat. – Toshkent: Sharq, 2001.
13. Abdurahmonov Q. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.